



INTERNET LINGVISTIKASI VA UNING O'RGANILISH DARAJASI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18765190>

Osiyo texnologiyalar universiteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Mardonova Marg'uba Boboyorovna

margubamardonova82@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada internet lingvistikasi tushunchasi, uning shakllanishi, bosqichlari hamda jahon va o'zbek tilshunosligida o'rganilish darajasi tahlil qilinadi. Raqamli kommunikatsiya jarayonida yuzaga kelayotgan lingvistik hodisalar-qisqartmalar, emotikon va emoji birliklari grafemik transformatsiyalar hamda kod almashuvi ilmiy asosda yoritiladi. Internet diskursining o'ziga xos pragmatik va sotsiallingvistik xususiyatlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: internet lingvistikasi, raqamli kommunikatsiya, virtual diskurs, emoji, qisqartma, kod aralashuvi, ijtimoiy tarmoq.

Abstract. The article analyzes the concept of internet linguistics, its stages of development, and the level of its study in world and Uzbek linguistics. Linguistic phenomena emerging in digital communication-abbreviations, emoticons, emoji, graphis transformations, and code-switching -are examined from scientific perspective. The pragmatic and sociolinguistic features of internet discourse are identified and systematized.

Keywords: Internet linguistics, digital communication, virtual discourse, emoji, abbreviation code-switching, social media.

Аннотация. В статье анализируются понятие интернет -лингвистики, этапы её формирования и степень изученности в мировой и узбекской лингвистике. Рассматриваются лингвистические явления цифровой коммуникации - сокращения, эмодзи, графические трансформации и кодовое смешение. Вы являются прагматические и социолингвистические особенности интернет - дискурса.

Ключевые слова: интернет- лингвистика, цифровая коммуникация, виртуальный дискурс, эмодзи, сокращения кодовое смешение, социальные сети.

KIRISH

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi til tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Internet

global kommunikativ makon sifatida yangi nutq shakllarini yuzaga keltirdi. Shu jarayon natijasida tilshunoslikning yangi sohasi internet lingvistikasi shakllandi.



Internet lingvistikasi atamasi ilmiy muomalaga David Crystal tomonidan kiritilgan bo'lib, uning "Language and the Internet" asarida internet tilining nazariy asoslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning dolzarbligi internet diskursining o'zbek tilshunosligida yetarlicha kompleks o'rganilmaganligi bilan belgilanadi. Metodologiya. Maqolada quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: tavsifiy metod, qiyosiy-tahliliy metod, diskursiv tahlil, sotiologvistik kuzatish. Tahlil materiali sifatida ijtimoiy tarmoqlardagi (Telegram, Instagram va boshqalar) yozma muloqot namunalari umumlashtirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, internet diskursi an'anaviy yozma nutqdan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi. Qisqartmalar: Internet muhitida tezkorlikmuhim omil bo'lib, bu qisqartmalar keng qo'llanilishiga sabab bo'ladi. (salom-slm, rahmat-rhm, lekin-ln, bilan-bn). Emoji va emotikonlar: Emoji va emotikonlar matnga emotsional-ekspressev ma'no yuklaydi va ba'zan mustaqil semantik birlik sifatida qo'llanadi. Kod aralashuvi: O'zbek internet diskursida inglizcha va ruscha birliklarning aralash qo'llanishi kuzatiladi. Bu holat globallashuv va bilingvizm bilan bog'liq. Og'zaki va yozma nutq sintezi. Internet tili og'zaki nutqning spontanligi hamda yozma nutqning grafikasini birlashtirgan gibrid shakl sifatida namoyon bo'ladi. Muammoning qo'yilishi shundan iboratki, internet tili o'zining soddaligi, tezkorligi va

emotsional ifodaviyligi bilan foydalanuvchilarni o'ziga jalb etadi, biroq bu jarayon ko'pincha adabiy til me'yorlarining buzilishiga, imlo va uslubiy xatolarning keng tarqalishiga olib keladi. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida chatlar ijtimoiy tarmoqlar va mesenjerlar orqali muloqot qilishda so'zlarning qisqartirilishi ("rah- rahmat, brat-aka, ok-k, haaa" kabi) keng tarqalgan. Natijada nutq madaniyatida soddalashuv, ifoda shaklining buzilishi va tildagi milliy unsurlarning kamayishi kuzatiladi. Shu bilan birga, bu hodisa ijobiy jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Yangi so'zlar, tezkor ifoda vositalari, ijodiy neologizmlar tilning zamonaviy rivojlanishiga turtki bo'lmoqda.

Nazariy-metodologik asoslar nuqtayi nazaridan, mazkur masalani o'rganishda sotiologvistika, pragmatologvistika, kommunikativ lingvistika va media tilshunosligi yo'nalishlari asos sifatida xizmat qiladi. Internet tili kommunikatsiya vositasi sifatida virtual muhitda yangi lingvistik me'yorlar va ifoda shakllarini yaratadi. Shu bois bu hodisani o'rganishda sistemaviy yondashuv muhim ahamiyatga ega: til tizimining fonetik, morfologik, leksik va semantik sathlaridagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Tilshunoslar orasida bu masalaga turlicha yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar (masalan, D. Crystal, N. Baron, L. Stivenson) internet tilini "yangi yozma muloqot formasi" sifatida baholasa, boshqalar uni " oraliq kommunikatsiya turi" deb qaraydi, ya'ni



og'zaki va yozma nutq belgilarini birlashtiruvchi vosita sifatida ko'radi. [1.2]

O'zbek tilshunosligida esa internet tili nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, u hali to'liq tizimlashtirilmagan. Biroq bu borada ayrim tadqiqotchilar (Z. Qurbonov, N. To'xliyeva, M.Jo'rayeva va boshqalar tomonidan o'zbek tarmoq tilining shakllanishi, chat tili va transliteratsiya hodisalari haqida dastlabki ilmiy fikrlar ilgari surilgan.

XULOSA

Internet lingvistikasi zamonaviy tilshunoslikning mustaqil va istiqbolli yo'nalishidir. Raqamli kommunikatsiya tilning strukturaviy leksik va uslubiy tizimiga sezilarli o'zgarishlar kiritmoqda. O'zbek tilshunosligida internet diskursini tizimli, korpus asosida o'rganish emoji va multimodal vositalarning semantik yukini aniqlash dolzarb ilmiy masala bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baron N.S. Always on: Language in an Online and Mobile World . Oxford University Press. 2008.
2. Jo'rayeva M. Tarmoq kommunikatsiyasi va yoshlar nutq madaniyati / Filologiya masalalari, 2021-y. N2.
3. Muhammadjonova D. Raqamli kommunikatsiya sharoitida o'zbek tili me'yorlari / Tilshunoslik tadqiqotlari 2022-y. N1.
4. Crystal D. Language and the Internet - Cambridge University Press- 2006.
5. To'xliyeva N. Internet tili va uning lingvistik xususiyatlari / O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2019-y. N3.
6. Qurbonov Z. Zamonaviy o'zbek tili rivojlanish omillari. Toshkent: Fan-2020.
7. Usmonova O'. Nazarova D. Til madaniyati va nutq odobi. Toshkent TDPU nashriyoti, 2017.